“Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi: ko’chmanchi va o’troq madaniyatlarning o’zaro ta’siri” mavzusidagi xalqaro anjuman

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazida “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi: ko’chmanchi va o’troq madaniyatlarning o’zaro ta’siri” mavzusidagi xalqaro anjumani o’tkazildi. Xalqaro anjuman o’zbek arxeolog olimi Abdulhamid Anarbaevning 75 yillik yubileyi munosabati bilan tashkil etildi. Unda yetakchi soha mutaxassislari, olimning shogirdlari, yosh tadqiqotchilar, xorijlik olimlar o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.









Abdulhamid Anarbaevning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati ko’p qirrali bo’lib, tarix va arxeologiyaning turli davrlari va muammolarini yoritishga qaratilgan. Olimning ilmiy faoliyatida Farg’ona tarixi va arxeologiyasi jumladan, Axsikent yodgorligi muhim o’rin egallagan. Xususan, yodgorlikda olib borilgan bir necha o’n yillik qazishmalar natijasida miloddan avvalgi II asr Xitoy manbalarida, milodiy eraning VII-VIII asrlar arab manbalarida tilga olingan qadimgi Farg’ona davlatining poytaxti “Farg’ona” (Yuan) shahri Eski Axsi (Axsikent) yodgorligi o’rnida bo’lganligi, IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Farg’ona-Axsikat, faqat XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Axsikat – deb atala boshlaganligi arxeologik va numizmatik materiallar asosida isbotlab berildi.

Ilmiy yo’nalishlarda katta tajriba va ko’nikmalarga ega ustoz pedagogik faoliyatida ham faol bo’lib, uning rahbarligida ko’plab magistrlar, 3 nafar fan nomzodi va 1 nafar fan doktori ilmiy darajasi himoya qilingan.

Uning ilmiy-pedagogik sohadagi ulkan xizmatlari va ulkan muvaffaqiyatlari, arxeologiya fanini rivojlantirishdagi ko’p yillik samarali va fidokorona mehnati, ilm-fanni ommalashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, jamiyat hayotidagi faolligi hukumat tomonidan e’tirof etilib, u 2019-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan.

A. Anarbaevning ilmiy faoliyati jarayonida 200 ta ilmiy va ilmiy ommabop ishlar nashr etilgan. Xususan, 182 ta ilmiy, 20 dan ziyod ilmiy-ommabop ishlar muallifidir. Ilmiy ishlarning 50 dan ziyodi xorijiy davlatlarda chiqadigan arxeologiya, qadimgi tarix, biosferaga oid nufuzli ilmiy jurnal va to’plamlarda nashr qilingan.